



Tadqiqot.uz



ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES | RESPUBLIKA KO'R TARMOQLI ILMIY KONFERENSIYA

YANG O'ZBEKISTON: 2023

CONFERENCE.UZ

INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

DAVRIYLIGI: 2018-2023



SPEKTROSKOPIYA -
MATERIYANI BILISH USULI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJUY OLY TALIM MUASSASALARI PROFESSOR-OQTUVIGHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLU TALABALAR



TOSHKENT SHAHAR, AMIR
TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.



+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00



WWW.TAQIQQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ



YANVAR
№48

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИННОВАЦИЯ, ФАН
ВА ТАЪЛИМ
10-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
ИННОВАЦИИ, НАУКА
И ОБРАЗОВАНИЕ
ЧАСТЬ-10**

**NEW UZBEKISTAN:
INNOVATION, SCIENCE
AND EDUCATION
PART-10**

ТОШКЕНТ-2023



“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 48-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 январь 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 49 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Ҳаракатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттига устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўкув ишлари бўйича декан ўринбосари

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибай Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Мухаммадхон Хамидович «ТИИМСХ»

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Сахифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов: tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

**ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ
ИННОВАЦИЯЛАР**

1. Po'latova Zamira Hamdamovna, Dadaeva Shaxnoza Mirsaitovna	
GEOGRAFIYA DARSLARIDA KINOFILMLARDAN FOYDALANISH	7
2. Jo`rayeva Saida Habibullayevna	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI XALQARO BAHOLASH DASTURLARIGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI.....	9
3. Mamatova Nilufar Shokirjonovna	
TA'LIM MAQSADI – BOSHLANG'ICH TA'LIMNING BOSH MEZONI	11
4. Melikuzieva Mavluda Abduxafizovna	
O'QUVCHILARNI MUSTAQIL HAYOTGA TAYYORLASHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARI	13
5. Kuryozova Feruzakhon Parhodovna	
IMPROVING 4 TH GRADE LEARNERS' GRAMMAR SKILLS WITH "PICTURE ENVELOP"	15
6. Rahimova Gavhar Ubaidilajonovna	
DEVELOPING VOCABULARY WITH THE TECHNIQUE SNOWBALL FIGHT	17
7. Soliyeva Matluba Nabijonovna	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARI "SINF ICHIDA SINF" SHAKLIDA	19
8. Yulchiboyeva Dilfuza Ergashevna	
KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNING DIQQATINI RIVOJLANТИRISH	21
9. Bozарova Gulsara Fayzullayevna	
UMUMTA'LIM MUASSASALARI MATEMATIKA DARSLARIDA O'QITISH METODIKALARINI QO'LLANILISHI	23
10. Djumayeva Aziza Axrorovna	
BOSHLANG'ICH TA'LIMDA DIKTANTLARNI O'TKAZISH METODIKASI.....	25
11. Mahmudova Dilnoza	
BOSHLANG'ICH SINFDA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH .	27
12. Mirzayeva Nigoraxon Mo'ydinovna	
ADABIYOT DARSLARIDA BADIY ASAR QAXRAMONLARI TAHLILIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH	29
13. Naimova Gulbahor Raximovna	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA SAVOD O'RGATISH BOSQICHLARI.....	31
14. Qulmatov Asilbek Mahkamboyevich	
JISMONIY TARBIYA FANINING BUGUNGI DAVRDAGI AHAMIYATI	33
15. Sarbarova Malika Yo`ldashaliyevna	
BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTERFAOL TA'LIM METODLARIDA FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI	35
16. Usmonova Shodiya Abdurasulovna, Dehqonova Yorqinoy Ruzimamatovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy rivojiga ta'sir etuvchi omillar	37
17. Xakimova Maloxat Abdulkodiyevna	
QANDAY QILIB MAKTABLARDA BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATINI YAXSHILASH MUMKIN?.....	39
18. Zulpikariyeva Dilfuza Toirovna	
SINF RAHBARLARI TOMONIDAN O'QUVCHILARINING TAFAKKURINI YUKSATIRISHDA QO'LLANILADIGAN PSIXOLOGIK MASHQ VA TRENINGLAR....	41
19. Бекташева Гульсюм Серверовна	
ФОРМЫ И МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ.....	43
20. Нуридинова Гульмира Сайджановна	
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ СПОСОБНОСТИ В ОБРАЗОВАНИИ И ИХ ВИДЫ.....	45
21. Рахманова Дилдора Гуломалиевна	
ФИЗИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ И ЗДОРОВЫЙ ОБРАЗ ЖИЗНИ.....	47



ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

GEOGRAFIYA DARSLARIDA KINOFILMLARDAN FOYDALANISH.

Po'latova Zamira Hamdamovna

Dadaeva Shaxnoza Mirsaitovna

Toshkent shahar Olmazor tumani

24-IDUM geografiya fani o'qituvchilari

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta'lim muassasalarini geografiya darslarida kinofilmardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Kinofilm, maxsus, o'qituvchi, fan, maktab, dars.

Kinofilmardan geografiya darslarida foydalanish dars mavzusi, dars turi, boshqa holat va sharoitlarga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Dars jarayonida kinofilmardan to'la foydalanish mumkin, uning bo'limlaridan va qism yoki lavhalaridan foydalanish mumkin. Kinofilmni namoyish qilishni darsning turli xil bosqichlarida amalga oshirish mumkin. Ayrim kinofilmardan to'la, ayrimlaridan qisman foydalanish mumkin. Kinofilmlar dars jarayonida foydalanishga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi: 1)maxsus o'quv maqsadlarida chiqarilgan filmlar; 2) ilmiy- ommabop kinofilmlar; 3) tabiat komponentlarining ayrim qismlariga bag'ishlangan filmlar (tog'lar,o'rmonlar, daryolar, ko'llar, hayvonot dunyosi va h. k.) 4) badiiy filmlar; 5) videofilmlar.

Maxsus o'quv filmlari aniq bir mavzuga bag'ishlangan bo'ladi. Masalan, tog'lar, Sahroyi Kabir cho'li, tundra, o'rmonlar va h.k. Ilmiy-ommabop kinofilmlar asosan keng xalq ommasiga mo'ljallab chiqariladi. Dars jarayonida uning ayrim qismlaridan foydalanish mumkin. Tabiat komponentlarini ayrim qismlariga bag'ishlangan kinofilmardan ham dars jarayonida foydalanish mumkin. Masalan, hayvonlarni ayrim turlariga, okean mavjudotlariga, aholiga va uning turmush tarziga bag'ishlangan filmlar. Badiiy filmlarni ham ayrim dars mavzusiga oid qismlaridan foydalanish mumkin. Bunday filmlar toifasiga sarguzasht filmlar ko'proq kiradi. Unda tasvirlangan tabiat manzaralari, o'simlik va hayvonot dunyosidan dars jarayonida foydalanish mumkin. Turli xil videofilmlardan ham mavzuga mos joylaridan foydalanish mumkin.

Yuqorida aytilanidek kinofilmardan darsning boshida, ya'ni o'tilgan darslarni takrorlashda, yangi mavzuni o'tishda, olingen bilimlarni mustahkamlashda foydalanish mumkin. Takrorlash darslarida mavzu bo'yicha kinofilm yoki uning bir qismi namoyish qilinadi va o'quvchilardan unga izoh berish yoki uni tushuntirib berish talab qilinadi. Yangi mavzuni o'rganishda mavzuga oid kinofilm to'la ko'rsatiladi. Bunda filmga o'qituvchi izoh beradi. O'tilgan mavzuni mustahkamlashda ham kinofilmardan foydalanish mumkin. Bunda kinofilm namoyish qilinadi va uning mazmuni o'quvchilardan so'raladi. Ayrim xollarda kinofilmlar darsni kirish qismi sifatida ko'rsatiladi. Filmni dars jarayonidagi o'mi darsning maqsadi, mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari bilan aniqlanadi. O'quv filmlaridan bilim olish manbai sifatida ham foydalanish mumkin. Undan mustaqil ishlarni bajarish bo'yicha o'quv qo'llanma sifatida ham foydalansa bo'ladi. Masalan, berilgan savollarga javob topish, namoyish qilinayotgan materiallarni mavjud material bilan, darslik bilan, o'qituvchini ma'rzasasi, qator boshqa filmlarni mazmuni bilan solishtirish. Filmlar o'quvchilar bilimini tekshirishda va o'rganilgan mavzu mazmunini o'zlashtirish darajasini aniqlashda, o'tilgan materiallarni umumlashtirishda yoki ma'lum mavzuni umumiyl tavsifini o'tishda foydalanish mumkin. Bundan tashqari filmlar yordamida sinf sharoitida sayohatlar ham uyuştirish mumkin yoki bo'lmasa o'quvchilar bevosita ko'rolmaydigan jarayonlarni ko'rsatish mumkin. Masalan, “Qora metallurgiya”, “Sintetik tolalar”, “Tropik o'rmonlar”, “Cho'llar”, “Dashtlar”.

Dars jarayonida filmlar bilan ishslash metodikasi quyidagi qismlardan iborat: a) o'quvchilarni ma'lum bir mavzu bo'yicha kinofilmni ko'rishga tayyorlash; b) o'quvchilarni filmni ko'rish jarayonidagi ishlarini tashkil qilish; v) ko'rilgan film mazmunini mustahkamlash; g) kinolashtirilgan darsni samaradorligini tekshirish. O'quvchilarni dars oldidan aniq filmni ko'rishga tayyorlash



film mazmunini faol tushunishga va uni to’la o’zlashtirishga imkon beradi. Filmni o’quvchilar o’qituvchi kuzatuvida ko’rishadi. Agar filmni ko’rish jarayonida nazorat bo’lmasa o’quvchilar filmga diqqat berishmaydi va boshqa narsa bilan shug’ullana boshlaydilar yoki bir-biri bilan gaplashib o’tirishadi. Natijada film mazmuni yuzaki o’zlashtiriladi. Agar film qiziqarli bo’lsa o’quvchilar uni qiziqib diqqat bilan tomosha qilishadi. Ammo ularni faoliyati shunda ham nazorat qilinsa filmni mazmunini tahlil qila olishmaydi. Shuning uchun film boshlanishidan oldin o’qituvchi filmni maqsadini, unda nimalar tasvirlanganini, qanday savollarga o’quvchilar javob topishini kirish suhbatida tushuntiradi. Bundan tashqari o’qituvchi kirish suhbatida filmni qayerlariga e’tibor berishni, qayerlarini alohida ajratib tahlil qilinishini tushuntiradi.

Geografiya ta’limida o’quv kinofilmlaridan foydalanishni yana bir asosiy shartlaridan biri o’qituvchini film namoyishida faol ishtirok etishidir. Eng yaxshi va qiziqarli film bo’lgan taqdirda ham o’qituvchi darsni boshqarishi shart hisoblanadi. Film namoyishi jarayonida o’qituvchi ko’rsatilayotgan kinolavhalarga izoh berib borish lozim. Kerakli joylarda film namoyishini to’xtatib bilimlarni chuqurlashtirishi mumkin. Ayrim nazariy qonun qoidalarni kengroq tushuntirib berishi, so’ngra film namoyishini davom ettirishi mumkin. Filmni ko’rish davomida o’qituvchini izohlari o’quvchilarga xalaqit bermasligi lozim. Shuning uchun faqat kerakli joylaridagina izox berish lozim. Agar kinofilmda metodik xatolar bo’lsa o’qituvchi uni to’g’rilab ketishi lozim. Ma’lum bir voqeя xodisalarni mohiyatini o’quvchilar yaxshirioq tushunib olishlari uchun filmni namoyishini biroz to’xtatib turish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

- 1.H.B. Vahobov, O.T.Mirzamahmudov. Geografiya o’qitish metodikasi. Namangan 2016-yil.
2. Abdug’aniev O. Geografiya darslarida texnika vositalaridan foydalanish. Toshkent “O’qituvchi” 1995
3. Internet ma’lumotlari



**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI XALQARO BAHOLASH
DASTURLARIKA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI**

Jo‘rayeva Saida Habibullayevna

Namangan viloyati Norin tumani
21-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

ANNOTASIYA: Rivojlangan davlatlarda ta’lim oluvchilarining intellektual rivojlanishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa, jahonda zamonaviy fan yutuqlari, ilmiy kashfiyotlar ijodiy, erkin, tanqidiy, mustaqil tafakkur natijalariga ehtiyoj ortib borishini ko‘rsatadi. Shu borada firklar yuritamiz

TAYANCH SO‘ZLAR: intellektual rivojlanish, tafakkur, intellekt, xalqaro baholash

Rivojlangan davlatlarda ta’lim oluvchilarining intellektual rivojlanishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Blue School, Steve Jobs School, Special Music School (Amsterdam), Alt School (San Francisco), Talent Culture Academy (Canada), “Dzyuku” (Yaponiya) kabi maktablar o‘sib kelayotgan avlod tafakkuri, kreativligini rivojlantirishni yetakchi maqsad sifatida belgilab olishgan. Bu esa, jahonda zamonaviy fan yutuqlari, ilmiy kashfiyotlar ijodiy, erkin, tanqidiy, mustaqil tafakkur natijalariga ehtiyoj ortib borishini ko‘rsatadi. Ushbu masalaning eng muhim tomoni esa, dunyo maydoniga chiqish uchun tafakkurning teranligi, nostonart vaziyatlarda o‘zlashtirgan bilimlarini aniq qo‘llay oladigan avlodni tarbiyalash muhimligini ko‘rsatadi. Dunyoning rivojlangan davlatlari amaliyotida yosh avlod tafakkurini, intellektini rivojlantirish o‘z-o‘zidan mavjud pedagogik shart-sharoitlar, metod va usullar bilan emas, balki yangi innovatsion g‘oyalar, shuningdek, ta’limning rivojlanish bosqichidagi eng so‘nggi yutuqlar orqali amalga oshirilmoqda. O‘quvchilar tafakkurini rivojlantirish, intellektini boyitish jahonning yetakchi davlatlarida turlicha amalga oshiriladi. Hozirgi kunda AQShda bu masala bo‘yicha P.Torrens, Fransiyada P.Debrai-Retzen “Iqtidorli talabalar ustoz modeli”ni taklif qilishgan. Mazkur modelga ko‘ra o‘qituvchi o‘z sohasi bo‘yicha o‘quvchisida qiziqish uyg‘ota olishi, tashabbuskor va keng fikrlashga o‘rgata olishi ko‘zda tutilgan. AQShning “Merit” dasturi ham har yili aynan tafakkuri keng, zehnli, fikrashi teran o‘quvchilarni tanlab oladi. Bu esa intellektni aniqlash testlari orqali amalga oshiriladi. Buyuk Britaniyada intellekti yuqori bolalarni tadqiqot qilish Markazi mavjud bo‘lib, unda kengaytirilgan va tezlashtirilgan kurslar asosida o‘qitish tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda ham yosh avlodga ta’limtarbiya berish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviy va intellektual salohiyatini oshirish jamiyat taraqqiyotida asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Ana shu nuqtai nazaridan O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Jismonan sog‘lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat’iy hayotiy nuqtai nazariga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish asosiy vazifa sifatida” belgilangan. Mazkur vazifani amalga oshirish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xalqaro baholash dasturlarida ishtirokini ta’minlashda muhim hisoblanadi. Buning uchun esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xalqaro baholash dasturlarida ishtirokini ta’minlashda samarali ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb hisoblanadi. Xalqaro baholash dasturlaridan TIMSS- maktabda matematika va tabiiy fanlarni o‘qitish sifatining xalqaro monitoringi bo‘lib, ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan tashkil etiladi. Mazkur dastur 4 -sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha egallagan bilim darajasi, sifatini solishtirish hamda milliy ta’lim tizimidagi farqlarni aniqlashga yordam beradi. Mazkur dasturning o‘ziga xosligi shundaki, u dunyodagi maktablarning matematika va tabiiy fanlar bo‘yi cha berilayotgan ta’lim mazmuni, o‘quv jarayoni, o‘quv muassasasi imkoniyati, o‘qituvchilarning bilim darajasi, tahsil oluvchilarning oilaviy muhiti bilan bog‘liq omillarni o‘rganadi. Ko‘rsatib o‘tilgan omillar matematika fanlarini o‘zlashtirish holatini ko‘rsatishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda o‘quvchilarni xalqaro baholash dasturlariga tayyorlashda quyidagilarga e’tibor qaratish maqsadga muofiq:

-ona tili, matematika va tabiiy fanlarni o‘qitishning shakl, metod va texnologiyalarni zamon talablariga moslashtirish; -bu borada pedagog kadrlarni malaka oshirish kurslarini tashkil etish;



-mazkur fanlar yuzasidan bilimlar bazasini yaratish;

-yuqori salohiyatli kadrlarni xorij davlatlarga stajirovka o‘tashini tashkil qilish va b.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7- fevraldagisi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmonni.– O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.



TA’LIM MAQSADI – BOSHLANG’ICH TA’LIMNING BOSH MEZONI

Mamatova Nilufar Shokirjonovna

Namangan viloyat, Namangan tuman,
17-maktab boshlangich ta’lim oqituvchisi

Annotasiya: Maqlada ta’lim maqsadi – boshlang’ich ta’limning bosh mezoni ekanligi ta’limning mazmunini, DTS talablarini izohlash hamda boshlang’ich ta’lim jarayonida ta’limda qo’yilgan maqsadi va vazifalarini amalga oshirish orqali asoslangan.

Kalit so’zlar: ta’lim, DTS, boshlang’ich ta’lim

Ta’lim maqsadi (o’qish, bilim olish maqsadi) – ta’limning aniq yo’nalishini belgilab beruvchi yetakchi g’oya hisoblanib, u boshlang’ich ta’limning bosh mezoni sanaladi. Boshlang’ich ta’lim umumiyo’rta ta’limning dastlabki bosqichi davlatimizda 1-4-sinflarni qamrab oladi. Unda ta’lim berish, ularni aqliy, ma’naviy, jismoniy kamoltoptirishning dastlabki bosqichi sanaladi. Boshlang’ich ta’lim Davlat ta’lim standartida belgilangan maqsad orqali amalga oshiriladi. Davlat ta’lim standartining maqsadiga e’tiborni qaratadigan bo’lsak, umumiyo’rta ta’lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg’or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma’naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat. Boshlang’ich ta’lim Davlat ta’lim standarti - boshlang’ich ta’lim mazmuni va ushbu o’quv predmeti bo’yicha o’quvchilar egallaydigan bilim, ko’nikma, malakalarga qo’yilgan talablarni davlat tomonidan tasdiqlangan etaloni, modeli hisoblanadi. Boshlang’ich ta’lim jarayonida belgilanadigan ta’lim maqsadi umumiyo’rta ta’limning DTSda keltirilgan umumiyo’rta ta’lim mazmuni va sifatiga qo’yiladigan talablarni amalga oshiradi: umumiyo’rta ta’lim mazmuni va sifatiga qo’yiladigan talablarni belgilash; milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida o’quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish; o’quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, umumiyo’rta ta’lim muassasalarining o’quvchilari va bitiruvchilarining malakasiga qo’yiladigan talablarni belgilash; kadrlarni maqsadli va sifatlari tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minalash; ta’lim va uning pirovard natijalari, o’quvchilarning malaka talablarini egallaganlik darajasini tizimli baholash tartibini, shuningdek, ta’lim-tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish; davlat ta’lim standartlari talablarining ta’lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo’yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta’minalash. Ta’lim maqsadini o’rganish birinchi navbatda “ta’lim”ning mazmuni bilan yaqindan tanishish lozimligini anglatadi. Ta’lim – bilim berish, malaka va ko’nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Talim jarayonida ma’lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Talim tor ma’noda o’qitish tushunchasini anglatadi. Lekin u faqat turli tipdagi o’quv yurtlarida o’qitish jarayonini emas, oila, ishlab chiqarish, va boshqa sohalarda ma’lumot berish jarayonini ham bildiradi. Ta’limning mazmuni va mohiyati jamiyatning moddiy va madaniy taraqqiyoti darjasini bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiyo’rta ma’lumotga bo’lgan ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyorgarligiga, ta’lim haqidagi pedagogik g’oyalarga qarab kishilik jamiyatni taraqqiyotining turli bosqichlarida ta’limning mohiyati, metodi, tashkiliy shakllari o’zgarib borgan. Maqsad esa – muayyan natijaga erishish yo’l va usullarini belgilovchi omildir. Ta’limning maqsadi obyektiv hayot talablariga muvofiq holda o’zgarib borgani kabi, ta’limning xarakteri, yo’nalishi ham uning maqsadiga muvofiq o’zgarib boradi. Ta’limning maqsadiboshlang’ich ta’lim o’quvchilarning bilish qobiliyatini o’stiruvchi asosiy omildir. O’quvchilar qobiliyatini o’stirishga qaratilgan tizimlar muayyan didaktik qoidalar tarzida namoyon bo’ladi. Didaktik tamoyillarda ta’limning mazmuni va jarayonlariga qo’yilgan talablar belgilanadi. Talimning maqsadi va vazifalari ijtimoiy tuzum, shuningdek, muayyan o’quv yurtlari funksiyasiga muvofiq tarixan o’zgarib boradi. Boshlang’ich ta’lim mazmuni uning maqsadiga muvofiq, ijtimoiy shart-sharoit, fan va texnika, san’at holati va shu kabilarni hisobga olgan holda belgilanadi. Boshlang’ich ta’lim jarayonida ta’lim maqsadi quyidagi vazifalarini amalga oshirishi lozim: Boshlang’ich ta’lim jarayonida qo’yiladigan talablarning avvaldan fikran loyihalashtirish; ijtimoiy zarurat, ijtimoiy talab, ijtimoiy buyurtma hamda didaktik masalani aniq belgilash; ta’limning umumiyo’rta va xususiy maqsadini amalga oshirishda ta’lim shakl, metod va vositalarini to’g’ri tanlash; ta’limning tur



va bosqichlarida maqsad va uzviyligini ta'minlash. Ta'lim maqsadi ta'limiy, tarbiyaviy hamda rivojlantiruvchi vazifalarni amalga oshiradi. Boshlang'ich ta'limda belgilangan ta'lim maqsadi har bir pedagogik texnologiyani yaratishga asos bo'lib hisoblanadi. Maqsadning zamonaviy ta'lim va tarbiya muammolarini yuqori samaradorlik bilan hal qilishga qaratilgan bo'lisi zarur asos hisoblanadi. Biror pedagogik texnologiyani yaratish uchun eng zarur shart shunday dolzarb maqsadni aniqlay olishdan iborat. Bunday maqsad zarur tadqiqotlar, ijodiy izlanishlar olib borish, o'zining va boshqa mutaxassislarning ish tajribalarini chuqur tahlil qilish orqali aniqlanadi. Raqobatbardoshlik har bir boshlang'ich ta'limda pedagogik texnologiyaning maqsadga muvofiqligini taraqqiyot nuqtayi nazaridan aytganda, o'z vazifalarini ijtimoiy ehtiyojlariga muvofiq bajarayotganligi darajasini belgilaydi. Bunday maqsadlarning yuqori raqobatbardoshlikni ta'minlashga yo'naltirilishi hozirgi talablardan kelib chiqadi. Raqobatbardoshlik boshlang'ich ta'limda pedagogik texnologiyaning barcha tarkibiy qismlari uchun eng zarur shart bo'lib, bunda yakuniy natijani bevosita tayyorlovchilar bo'lgan o'qituvchi va o'quvchining raqobatbardoshligiga erishish asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Bu unga bo'lgan talab yuqori bo'lishini ta'minlash uchun muntazam takomillashtirib borish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limning ta'lim maqsadi ilmiylik, tushunarilik, ko'rgazmalilik, insonparvarlik, tizimlilik kabi tamoyillarga tayangan holda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablarni amalga oshorishga xizmat qiladi. Aniq qo'yilgan maqsad kelajak poydevoridir.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Pedagogika. M.Toxtaxodjaevaning umumiylar tahriri ostida (Darslik). – T., 2010.
2. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi (o'quv qo'llanma). - T., 2008.



O'QUVCHILARNI MUSTAQIL HAYOTGA TAYYORLASHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARI

Melikuzieva Mavluda Abdusafizovna
Qo'qon davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada mustaqil hayot mazmuni, o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik muammolari va bu muammolarning yechimi borasidagi tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, hayot yo'li, turmush tarzi, mustaqil hayot, oila, oilaviy muhit

Аннотация: В данной статье изложены содержание самостоятельной жизни, социально-педагогические проблемы подготовки учащихся к самостоятельной жизни и рекомендации по их решению.

Ключевые слова: воспитание, жизненный путь, образ жизни, самостоятельная жизнь, семья, семейное окружение

Abstract: This article describes the content of independent life, socio-pedagogical problems of preparing students for independent life and recommendations for their solution.

Keywords: upbringing, life path, lifestyle, independent life, family, family environment

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi tomonidan Umumiy o'rta ta'lif maktablarining 11-sinf o'quvchilari uchun nashrga tavsiya etilgan Tarbiya darsligi quyidagicha boshlanadi: "Hademay mustaqil hayot ostonasiga qadam qo'yasiz. Sizni oldinda kundalik turmushning oddiy sinovlari-yu "past-u baland"idan tortib umrning ajoyib va g'aroyib sinalmagan so'qmoqlari kutib turibdi. Chunki bu tiriklik kengliklarida yaxshilik va yomonlik, to'g'rilik va yolg'onchilik, halol va harom kabi fazilat-u nuqsonlar kezib yuribdi. Ular yonma-yon yashaydi. Albatta, hayot mana shunisi bilan rang-barang, sir-sinoatlidir". Azaldan Sharqda kishining hayot yo'li, turmush tarzi, oilaning muqaddasligi, ota-onasi va ustozlarning ulug'ligi, umuman olganda, insoniy qadriyatlarining muqaddasligi e'zozga sazovordir. Bularning barchasi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas, balki Buyuk Sharqning hayot tarzi bugungi kunimizning tamal toshidir. Biz o'z kelajagimiz uchun qayg'urishimiz kerak va mакtab ta'lifdan boshlab o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlab borishimiz shart.

Bizningcha mustaqil hayot deganda, insonning:

- sog'lom turmush tarzi
- yurish-turishi, kiyinishi
- gap-so'zi va odob-axloqi
- aql-idroki, muomilasi, umuman olganda hayotda o'z orniga ega bo'lish, hayotda o'z o'rnini topa olishini nazarda tutamiz. Bu degani hamma hayotdagi voqealarni hodisalar asosida xulosa chiqarish deganidir. Yuqorida aytib o'tilganidek, hayotning "past-u baland"idan o'tish uchun avval hayotning o'zidan ta'lif olish zarur. Zero, XI asrda yashab ijod etgan tojik adabiyotining asoschisi, buyuk alloma Abu Abdulloh Rudakiy hayotni ustoz deb hisoblab, undan ta'lif olishga undab quyidagi fikrilarni bildirgan:

Ҳар киши олмаса ҳаётдан таълим,

Унга ўргатолмас ҳеч бир муаллим.

Xorij adabiyotlarida mustaqil hayot deganda o'quvchilarning tanlovi, nazorat qilishi, qabul qilishi, o'z oilasida ulg'ayishi, mahalla mакtabida o'qishi, qo'shnilar bilan bir xil avtobusdan foydalanishi, o'zlarining ma'lumoti va qiziqishlariga mos ishlarda ishlashi va oila muhitida tarbiyalashi, o'z- o'zini, e'tirof etishni his qilishidir, deb ta'riflanadi. Chuqur tahlil qilinsa bizning umumta'lif maktablarimiz o'quvchilarni ham mustaqil hayotga tayorlashda biroz yaqinlik borligini sezamiz, bugungi kun nuqtai nazaridan qarasak, bizda ham oila, oilaviy muhit va sharoitlar muhim, mahalla esa azaldan tarbiya o'chog'i sanaladi, o'quvchilarning qiziqishiga ko'ra kasb tanlshga yo'naltirish masalasi esa davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Zero, mamlakatimizda yosh avlodni hayotga mustaqil qadam qo'yishlarida barcha zarur sharoitlarni yaratishga qaratilgan tizimli ishlardan amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat"[1]. Yurtboshimiz



fikrlaridan kelib chiqib, bugungi kun o`quvchilarini mustaqil hayotga tayyorlashda quyidagi ijtimoiy-pedagogik muammolar mavjudligini aytish joiz:

- o`quvchilarning yetarlicha dunyoqarashini kengaytirish;
- o`quvchilarning iqtidorini namoyish etishga jalg qilish;
- o`quvchilarning “Men”ligini namoyon ettirish, qo`rquvdan voz kechtirish;
- o`quvchilarning topqir bo`lish, g`oyalalar yaratishga undash;
- o`quvchilarga inson nima xohlashini chin dilidan anglatish (g`oliblik ongi va jismida paydo bo`ladi);
- o`quvchilarga tanqidlarni to`g`ri qabul qildirish (buyuklikka yetkazadi)

- o`quvchilarni “Sen g`ayratisan! Sen kuchlisan! Seni hech narsa to`xtata olmaydi!” kabilalar bilan rag`batlantirish; (bu rag`bat orqali inson ongi va jismida kuch paydo bo`ladi). Mazkur muammolarni hal etish borasida quyidagilarni tavsiya etamiz:

- fan asoslarini chuqur singdirish;
- ma`naviy-ma`rifiy tadbirdirlarni uyishtirish;
- maktab psixologi bilan muntazam aloqa o`rnatish;
- ota-onalar va o`quvchilar bilan hamkorlikda trening-seminarlar tashkil etish;
- mahallalarda kasb-hunarga yo`naltiruvchi markazlar tashkil etish;
- har bir faoliyatni munosib taqdirlash, rag`batlantirish va hakozolar.

Adabiyotlar ro`yxati

1. Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi. <https://strategy.uz/index.php?news=615&lang=uz>
2. Feruza Aminovna Turakulova. Qualified practice organized in the system of higher education – the main factor in the activity of the future specialist.
3. Абдуллахонова Шахноза Акбаровна. Конфликты между педагогом и родителями. International conference on teaching, education and new learning technologies” 2023/2



IMPROVING 4TH GRADE LEARNERS' GRAMMAR SKILLS WITH “PICTURE ENVELOP”

Kuryozova Feruzakhon Parhodovna
Teacher of school 317 of Sergeli district

Abstract: the article deals with the issues based on improving learners' grammar skills with the technique “PICTURE ENVELOP” and it describes the process of its using.

Keywords: social interaction, grammar, language, foreign language.

Language is the chief means by which the human personality expresses itself and fulfills its basic need for social interaction with other persons.

Robert Lado wrote that language functions owing to the language skills. A person who knows a language perfectly uses a thousand and one grammar lexical, phonetic rules when he is speaking. Language skills help us to choose different words and models in our speech.

It is clear that the term “grammar” has meant various things at various times and sometimes several things at one time. This plurality of meaning is characteristic of the present time and is the source of confusions in the discussion of grammar as part of the education of children. There have been taking place violent disputes on the subject of teaching grammar at school.

The ability to talk about the grammar of a language, to recite its rules, is also very different from ability to speak and understand a language or to read and write it. Those who can use a language are often unable to recite its rules, and those who can recite its rules can be unable to use it.

Grammar organizes the vocabulary and as a result we have sense units. There is a system of stereotypes, which organizes words into sentences. But what skill does grammar develop?

First of all, here we should define, what is the picture envelope? An envelope is a form of packing. Envelopes are used for sending letters or documents using regular postal mail. Envelopes are usually made of paper or hardened paper.

Young learners have a long time ahead of them with the language. There is no need to rush into technical rules and labels that will confuse. It seems likely to be far better to give children a sound basis in using the language while encouraging curiosity and talk about patterns and contrasts in and between languages and introducing grammatical metalanguage slowly and meaningfully. Thus, teachers should develop internal grammar.

In the beginning stages, learners seem to use words or chunks strung together to get their meaning across with little attention paid to grammar that would fit the words or chunks together in conversational patterns. So how these collections of items turn into something more like a language with patterns of grammar?

If you can get your message through without grammar, then there may be a little impulse to drive grammar learning. Paying attention to grammatical features of a language is not something that happens automatically in communicating and that therefore some artificial methods of pushing attention are needed: teaching.

Rote-learned chunks of language will make up a substantial part of early learning and that learnt chunks also provide a valuable resource for developing grammar as they are broken down and re-constituted. Ways of teaching that help learners notice words inside chunks and how other words can be used in the same places may help with the development of grammar.

Children build hypotheses about how the foreign language works from the data they have received from their limited experience with the language. Errors in language use can often act as a window on to the developing internal grammar of the learner and are signals of growth.

Using pictures can make exercises and activities more interesting and more interactive. We can practice things like sequence, directions, story-telling, and various tenses with cut-up stories. Essentially it is a puzzle made of photographs. Have a stack of 8-10 photographs that are related so that they can be put in some kind of order (sequence, what happened, solve a crime, etc.). Put the students in small groups and have them examine the pictures. Tell them what the goal is. For example, tell a story by putting these 7 pictures into an order. Give the people names and don't just tell me the obvious, use our imagination and create a fictional story. For a lower level, it could be something like this: there are 10 pictures in our envelope. Each envelope shows a different activity being done and we need to put them order and describe each of the steps. Examples could be



making a cup of tea, making a sandwich, how to take the bus, etc. What we choose will be based on what topic(s) we would like them to practice.

This is a fun picture activity that can be approached for low intermediate or above. We can use more abstract pictures or artwork for this activity. Take a variety of photographs that are 8x 10 or larger and paste them on either construction paper or cardboard. We will then want to cover up most of the picture using squares of paper.

Tend to do this on the board with magnets, but we could also use double-sided tape. We'll want to be able to pull off each square easily. This is essentially a guessing game where they should be asking a lot of questions. We want them to determine what the picture or piece of artwork is with only a limited peek at the photograph. If students don't have any guess, reveal a little more and have them ask more questions. Continue until the entire picture is revealed or someone answers. We can vary this activity by doing it in smaller groups and by applying it to different language lessons.

Also, we can cut grammar rules and put them into the envelop, and continue game with putting them backwards and turn by turn opening and discussing and solving exercises and rules.

References:

1. Mezenin S. M., Denisova L. G. Grammar in the course of intensive teaching of English in secondary school // Foreign languages at school. 1992.
2. Rogova G.V. Methods of teaching English at the initial stage in educational institutions. M.: Enlightenment, 2000.



DEVELOPING VOCABULARY WITH THE TECHNIQUE SNOWBALL FIGHT

Rahimova Gavhar Ubaidilajonovna
Teacher of state specialized school 317

Abstract: the article describes issues based on difficulties and problems of teaching vocabulary and developing this process with the technique snowball fight.

Keywords: vocabulary, snowball fight, foreign language.

Vocabulary is one of the fundamental part through that a language is taught. Learning a new language is basically a matter of learning the vocabulary of that language. Not being able to find the words you need to express is the most frustrating experience in speaking another language. Of course vocabulary is not the whole of the language.

A teacher can only facilitate learning. The learner is the nucleus of the whole process of instruction; and his age, previous learning experiences, aptitudes, interests, the time he devotes to the learning of a foreign language and other socio-economic factors determine the suitability of the curriculum, course materials and methods of teaching. Any instruction that does not take into consideration the imperative needs of the learners, fails to achieve the desired objectives. It is therefore obvious, that the decline in the standard of English in different countries is the consequence of inadequacies of various degrees and at various levels of their educational system.

Following principles of vocabulary teaching can be taken into account while introducing new vocabulary:

- Students should be encouraged to notice how certain words perform in different contexts, preferably at the level of a text or paragraph. Words don't exist in isolation.
- Students' dependence on their first language in clarifying the meaning of English words should be diplomatically discouraged. Understanding the meaning of a certain word in context can often be avoided by word-for-word translation. Therefore, where possible they should use a monolingual (English-English) instead of a bilingual dictionary.
- Students should be encouraged to guess the meaning of unknown words where possible and to deduce the principles of vocabulary use in English on their own. This develops their awareness of how words work in context.

While introducing new vocabulary fully same words are translated, partly same words are introduced with word compositions, different words are given definitions. Words are very complicated with their meaning, material side (phoneme, morpheme, and grapheme) and expresses connection between objects and circumstance (its denotations).

Snowball throwing technique is one of vocabulary games which make students enjoy and can decrease worry in learning vocabulary. Snowball throwing encourages the students to be active in speaking participation in the classroom, because this method contains a rich communication where students must be active. Snowball throwing techniques have positive effect on the students memory development. In addition, the purpose of this technique is appropriate in reviewing the vocabulary for the students. In teaching learning process, snowball throwing technique can be a good media in developing students' vocabulary.

The aim of this technique is to review the vocabulary. Thus, “Snowball” technique can be a good facility in developing students' vocabulary in a teaching process. The procedure of “Snowball” technique is not difficult to apply. The main task of students is to repeat the phrase of the previous person and to expand it either by a word, a word-combination or a sentence (depending on the topic and the rules). This technique can be used while learning different topics, e.g. “Animals”, “Birds”, “Flowers”, “Trees”, “Fish”, “Colours”, “Foodstuff”, “Vegetables and fruit”, etc.

The role of teaching vocabulary through Snowball Throwing Technique:

This technique is not difficult to apply. The role is very simple to the subject under study when the play this technique. The role of teaching snowball throwing technique can play like a game. It can be explained as below:

1. Giving one topic for the student about what topic will you teach? For example: “Transportations”.
2. Asking the students to stand up.
3. The teacher plays the children music using the tape recorder.



4. The teacher throws the ball to the first student. The first student throw the ball to the other students, taking turns from the right side to the left side during the music plays and then suddenly the teacher stop the music.

5. The teacher shows a picture about the topic to the students. The last student which holds the ball must answer what the teacher shows. If the student cannot answer, the games will be continue to the next student until anyone can answer correctly and if all of the students cannot answer correctly, the teacher will answer what the picture is about. This situation can make students adroit in three activities at the same time (seeing, hearing, and speaking).

6. The teacher explains and gives simple question that related to the picture.

7. This step continues until the teacher finishers the last picture

8. This technique can make the players or in this case the students more adroit and their ability about memorizing the English vocabulary is more increased because they learn in an enjoyable way. Fun in learning with snowball throwing technique brings real word context in to the classroom and enhances students to use English in flexible communicative way. It can make students relax and fun to study.

References:

1. Rogova G.V., Vereshchagina I.N. Methods of teaching English at the initial stage in educational institutions. - M.: Enlightenment, 1998.
2. Solovova E.N. Methods of teaching foreign languages: a basic course of lectures: a guide for students under. Universities and teachers. - 3rd ed. - M.: Enlightenment, 2005.



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARI “SINF ICHIDA SINF”
SHAKLIDA

Soliyeva Matluba Nabijonovna

Namangan viloyati Norin tumani
21-maktab boshlang`ich sinf o`qituvchisi

ANNOTASIYA: Hozirgi vaqtida dunyoda 6000 ga yaqin til mavjud bo`lsada, ularning atiga 0,6-0,7 % igma davlat tili maqomiga erishgan tillar hisoblanadi. Boshlang`ich sinflarda ona tili darslarini tashkil etish va ularda tilga bo`lgan hurmatini oshirish to`g`risida

KALIT SO`ZLAR: dunyo tillari, ona tili, “sinf ichida sinf”, ona tilini o`qitish

Dunyoda 6000 ga yaqin til mavjud. Ular ichidan 40 taga yaqin tillar o`zaro og`zaki va yozma jihatdan mukammal shakllangandir. Quvonarlisi shundaki, mazkur 40 til ichida o`zbek tili ham bordir. Dunyodagi qadimiy, boy, tarix silsilalaridan xuddi xalqimiz kabi bardosh bilan o`tib kelayotgan o`zligimiz, g`ururimiz timsoli bo`lgan o`zbek tili xalqaro va davlat miqyosidagi til hisoblanadi. Bunga tamal toshi 1989 -yil 21-oktabrda qo`yilgan, unda o`zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi bilan birgalikda, mamlakatimiz bo`ylab yuritiladigan barcha davlat hujjatlari, qaror va farmoyishlar, o`quv adabiyotlari, xullas, jamiyat tili, turmushi barchasida o`zligimiz aks eta boshl agandi.

Birinchi Prezidentimiz o`zlarining “Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch” asarida ta`kidlaganidek: “Ma`lumki, o`zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, ajdodlar orasidagi ruhiyima`naviy bog`liqlik til orqali namoyon bo`ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili bu millatning ruhidir!” Ruhsiz tanada jon bo`lishining foydasi bo`limganidek, millat bo`la turib uning milliy tili bo`lmasa, xuddi quldek tobe bo`ladi. O`zbek tilining keng tarqalishi va ravnaqi uchun, albatta, ko`p sonli aholi zarur. Til jamiyatda o`zaro aloqa almashinuv quroli, ilm olishda asosiy vositadir. Insonni til o`rganmaslikka majbur qilish oxiri uning jamiyatdan uzilib, individ shaklida qolib ketishi bilan yakunlanadi. Biz esa oldimizga mustaqil fikrga ega bo`lgan, jahonda o`z so`zini baralla ayta oladigan, ham ruhan, ham jismonan sog`lom kelajak yaratish yo`liga tushib ol ganmiz. Allani uyda onalarimiz, momolarimiz aytib o`tiraversinlar, jamiyatdagi “allani esa yosh avlodga aytish millatning taqdirini hal qiluvchi pedogoglar zimmasidadir. Ular bolani uxlatish uchun emas, balkim, ongini dunyo bilan tanishtirish, mustaqil fikrlash malakasiga ega bo`lishi uchun, olamni anglashi uchun uyqudagagi aql-tafakkurni g`aflatdan halos qilish uchun aytishlari shart!

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev o`zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30-yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagи nutqida shunday degandi: “Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo`lgan o`zbek tili xalqimiz uchun milliy o`zligimiz hamda mustaqil davlatchiligidagi timsoli, beba ho`ma`naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Kimda-kim o`zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta`sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo`lsa, munis onalarimizning allalarini ming yillik dostonlarimizni, o`lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarning sehrli qo`shiqlariga qulqoq tutsin”. Ona tilining bor jozibasi va sehrini bola xalq og`zaki ijodi namunalarida his qiladi. Uyda, oilada eshitgan ertak, dostonlari va boshqalar bola qalbida ona tiliga muhabbat tuyg`usini yanada shakllantiradi. Maktabgacha ta`lim bosqichida esa bola jamiyatga qadam qo`ygan individ holatida bo`ladi. U chinakam o`zini shaxs deb his qilishi uchun to`g`ri yo`naltirilgan ta`lim va tarbiya zarur. Bola maktabga qadam qo`yar ekan, olamolam hayajon va quvonchlar qurshovida bo`ladi. U uchun hayotning yangi bir varag`i ochiladi. Bu varaq butun bir kitobning muhim bo`lagidek avaylabgina ochilishi mahoratl pedagoglar, boshlang`ich sinf o`qituvchilar qo`lidadir. Bolaning qiziqqon aqli va murg`ak qalbiga o`qituvchi halol nazar bilan qarashi zarur. Bola uchun noma`lum olamning notanish tomonlari aynan boshlang`ich sinf o`qituvchilar orqali tanishtirilishi bu chinakam baxt hamda omaddir. Boshlang`ich sinflarda soddallashtirilgan, bola ongi va tafakkuri, qiziqish hamda ruhiyatidan kelib chiqqan holda oddiylikdan murakkablikka tomon mo`ljallangan darslik, o`quv qurollari, ta`lim shakli shakllantirilgan bo`lib, ilm olishga chanqoq o`quvchilar tashnaligini qondirishga qaratilgan. Avvalombor, ota-onasi bilimli, saviyasi yuqori, ma`naviyatl bo`lsa, farzandiga ham to`g`ri tarbiya bera oladi. Boshlang`ich tarbiyani uyda olib maktabga keladigan bo`lajak kadrlar uchun ta`lim va tarbiya o`zaro bog`liqlikda, uzlucksiz holda olib



boriladi. Zero, “Bolalikda olingen bilim, toshga o‘yilgan naqsh kabitidir!” maqoli bezizga emas. Bola ongiga kerak bo‘lsa naqqoshlar kabi sinchkovlik bilan naqsh soluvchi hunarmand timsolida o‘qituvchi o‘zini ko‘rib, ma’suliyat hamda uddaburonlik bilan to‘g‘ri yondashishi zarur. Avvalo, ularga ona tilimizni mukammal darajada o‘rgatishimiz lozim. 1-sinflarda tashkil etiladigan ona tili darslari dastlab tayyorgarlik davri bilan boshlanadi. 1-sinfda ona tili fani tushunchasi savod o‘rgatish davridan so‘ng boshlanadi. Ungacha o‘quvchi harflarning yozma va og‘zaki shakllari bilan tanishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Umumiy o‘rta ta’lim tizimi uchun DTS. Toshkent – 2017.
2. Ernazarov G. “Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi”. Toshkent-“Ilm Ziyo” – 2013.
3. Safarova R.G. va boshqalar. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi. Toshkent-2014.
4. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X.va boshqalar. “Ona tili o‘qitish metodikasi”. Toshkent – 2009.
5. G‘afforova T., Shodmonov E., G‘ulomova X. “1-sinf o‘quvchilari uchun ona tili darsligi”. Toshkent – 2019 “Sharq” nashriyoti.



KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNING DIQQATINI
RIVOJLANTIRISH

Yulchiboyeva Dilfuza Ergashevna

Qo'qon davlar pedagogika instituti
“Amaliy psixologiya” kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya: kichik mакtab yoshidagi o'quvchilar diqqatini rivojlantirishda fiziolog, psixolog, pedgoglarning fikrlari va diqqatni rivojlantirish uchun trening mashqi yoritilgan

Kalit so'zlar: diqqat, o'quvchi, fiziologik asos, refleks, bilish, jarayon

Аннотация: освещены мнения физиолога, психолога, педагогов по развитию внимания младших школьников и тренировочное упражнение на развитие внимания

Ключевые слова: внимание, зрачок, физиологическая основа, рефлекс, познание, процесс

Abstract: the opinions of a physiologist, psychologist, teachers on the development of attention of younger schoolchildren and a training exercise for the development of attention are highlighted

Key words: attention, pupil, physiological basis, reflex, cognition, process

Maktab amaliyotida 6-7 yoshdan 9-10 yoshgacha bo'lgan o'quvchilarni kichik mакtab davri o'quvchilari deb yuritilishi qabul qilingan. Bu davrning har tomonlama sog'lom o'quvchilarini psixikasi bilim olishga yetadigan darajada rivojlanadi. Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarning muhim xususiyatlaridan biri, ularda o'ziga xos ehtiyojlarning mavjudligidir. Bu ehtiyojlar o'z mohiyatiga ko'ra faqat muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga qaratilmay, balki o'quvchilik istagini aks ettirishdan ham iboratdir. Shu ehtiyojlar asosida o'quvchning o'z shaxsiy o'quv qurollariga, dars tayyorlash stoliga, kitob, kiyim qo'yish javonlariga ega bo'lish, kattalardek har kuni maktabga borish istagi yotadi. Ana shu ehtiyoj o'quvchi shaxsining shakllanishida, uning ijtimoiylashuvida katta ahamiyatga ega.

Fizioglarning fikriga ko'ra, 7 yoshga kelib bolaning katta miya yarim sharlari ma'lum darajada rivojlangan bo'ladi. Lekin bu yoshda inson miyasining psixik faoliyatni rejalashtirish, boshqarish, nazorat qilish kabi murakkab shakllariga javob beradigan maxsus bo'limlari hali to'liq shakllanib bo'lmasada, kichik mакtab davrida o'quvchilar, fan asoslarini o'rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyor bo'ladilar.

Psixoglarning fikriga ko'ra, kichik mакtab davrida o'quvchilarning fan asoslarini o'rganishda psixik jarayonlardan biri bo'lgan diqqat ham alohida ahamiyatga ega. Diqqat -bu ongimizni bir nuqtaga to'plab, ma'lum narsa va hodisalarga faol yo'naltirishimizdir. Diqqat sezish jarayonida, idrok qilishda, xotira, hayol va tafakkur jarayonlarida har doim ishtirok etadi. Demak, diqqat barcha aks ettirish jarayonlarimizning doimiy yo'ldoshidir.

Pedagoglarning fikriga ko'ra, maktabga qadam qo'ygan har bir o'quvchining dars davomidagi faoliyatga bo'lgan e'tibori aynan o'quvchining diqqatidan boshlanadi, diqqatliroq o'quvchilar va diqqatini jamlay olmaydigan o'quvchilar bo'ladi. Bundan ko'rindaniki, diqqatini jamlay olmaydigan o'quvchilar o'yin, o'qish, mehnat faoliyatlarida qiyinchiliklarga duch kelishadi. Chunki bularda diqqat hali yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Pedagog bunday o'quvchilar bilan diqqatni rivojlantirish mashqlari asosida treninglarini tashkil etishi kerak. Quyida kichik mакtab davrida o'quvchilarning fan asoslarini o'rganishda diqqatni rivojlantirishga yo'rdam beradigan o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lgan mashqni tavsiya etamiz:

Mashqning nomi: Qalam testi - belgilarrni tuzatish

Mashqni o'tkazishdan maqsad: o'quvchilarning muayyan narsalarga diqqatini jamlay olish qobiliyatini aniqlash

Mashqning o'tkazilishi:

1. Turli geometrik figuralar rasmi tushirilgan, so'ng bitta-bitta kamaytirilib borilgan ko'rzamalar tayyorlash;
2. Diqqatini jamlay olmaygan o'quvchilarni tanlab olish;
3. Tanlab olingan o'quvchilarni bir qator qilib o'tkazish;
4. Ko'rgazmalarni navbatma-navbat namoyish etish;
5. O'quvchilardan qaysi figurani yo'qligini so'rab borish;
6. Aniqlik kiritish uchun o'quvchilarga bir daqiqa beriladi.



Izoh: ko`rgazmalarni hayvon, o`simliklar, ranglar, o`ziq-ovqat, kiyim-kechak, fasllar, gular, mevalarning rasmlari bilan ham almashtirib borish mumkin.

Pedagoglarning tavsiyasiga ko`ra, treningni har kuni bir necha marta o'tkazish tavsiya etiladi, lekin bu o`quvchilarni ortiqcha ishlashlariga jalb etish yaramaydi. Minimal chegara haftasiga besh marta bo`lsa yetadi. Albatta bir xil ko`rgazmalar bilan emas. Pedagoglar bu mashqni uylarida ham bajarishlari bo'yicha ota-onalarga tavsiya berib, o`rgatib qoyishlari maqsadga muvofiq. Bunday mashqlrni o`tkazilishi natijasida diqqatning nerv-fiziologik asosi bo`lgan oriyentirovka yoki tekshirish deb aytildigan maxsus reflekslar shakllanadi. Chunki bu refleks bosh miya yarim sharlarining po'stida kuchli qo'zg'olish jarayonidan iborat. Tegishli qo'zg'alish jarayonini yuzaga kelishi, I.P.Pavlov aytganidek «nima u» degan refleks bilan ifodalanadi, bu esa sodda turdag'i diqqatning fiziologik asosidir.

Xulosa qilib aytganda, kichik mакtab yoshidagi bolalar o'z diqqatlarini boshqara olmaydilar, shuning uchun o`qituvchining moxirona rahbarligi va kuchli nazorati alohida ahamiyat kasb etib, o`quvchilarning diqqatini to`g`ri tarbiyalashni ta'minlaydi.

Adabiyotlar ro`yxati

1. O'z.ME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Югай А.Х., Мираширова Н.А. “Общая психология” – Ташкент 2014 г. С.-194-205.
3. Safayev N.S., Mirashirova N.A., Odilova N.G. “Umumiyy psixologiya nazariyasi va amaliyoti“ TDPU, 2013 y. B.79-90.



UMUMTA'LIM MUASSASALARI MATEMATIKA DARSLARIDA O'QITISH
METODIKALARINI QO'LLANILISHI

Bozarova Gulsara Fayzullayevna

Toshkent shahar Olmazor tumanidagi
24-IDUM matematika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta'lismuassasalari matematika darslarida qo'llaniladigan o'qitish metodlari haqida fikr bildirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Dunyoqarash, o'quvchi, ta'lif, metod, malaka, bilim.

O'qitish metodi tushunchasi didaktika va metodikaning asosiy tushunchalaridan biri. O'qitish metodi tushunchasiga olimlar tomonidan turli ta'riflар berilgan. O'qitish metodi bu o'qituvchi va o'quvchining bирgalikdagi faoliyati bo'lib, uning evaziga o'quvchilar bilim, malaka va ko'nikmalarni egallab oladilar. O'quvchilarning dunyoqarashi shakllanadi, hayotga va mehnatga tayyorlanadi. Hozirgi zamon didaktikasida o'qitish metodlari tasnifida har xil yondoshish mavjud.

“O'qitish metodlari - bu darsda o'quvchilarning bilish faoliyatlarini tashkil etish usullaridandir” Bu fikrga kuchli psixolog I.YA.Lerner ham qo'shiladi. Undan tashqari metodist Nekandarov o'zining doktorlik dissertatsiyasida o'qitish metodlariga qo'yidagicha ta'rif beradi: “O'qitish metodlari bu darsda o'quvchilarning o'qish faoliyatlarini boshlash usullaridir”

Yuqorida keltirilgan ta'rifdan o'qitish metodlari o'qituvchi va o'quvchilarning bирgalikdagi faoliyatidan iborat ekani ko'rindi. Matematika darslarida foydalaniladigan metodlarning bir nechtasiga to'xtalib o'tamiz.

Og'zaki metodlar. Bunda qisqa muddat ichida hajmi bo'yicha eng ko'p axborot berish, o'quvchilar oldiga muamolar qo'yish, ularni hal qilish yo'llarini ko'rsatish imkonini beradi.

Tushuntirish. Bilimlarni tushuntirish metodining mohiyati shundan iboratki bunda o'qituvchi materialni bayon qiladi, o'quvchilar esa uni tayyor holda qabul qilib oladilar. Material bayoni esa puxta, aniq, tushunarli, qisqa bo'lishi kerak. Boshlang'ich matematika kursining bir qator masalalarini qarashda bilimlarning izchil bayoni zarur. Masalan, ko'p xonali sonni I xonali songa yozma bo'lish algoritmi ko'p xonali sonni I xonali songa yozma bo'lish algoritmini o'zlashtirish uchun izchil bayon zarurdir.

b) Suhbat. Bu eng ko'p tarqalgangan yetakchi o'qitish metodlaridan biri bo'lib, darsning turli bosqichlarida, har xil o'quv maqsadlarida qo'llanilishi mumkin. Suhbat-bu o'qitishning savol-javob metodi, bunda o'qituvchi o'quvchilarning bilim-larini o'zlashtirishlklari va amaliy tajribalariga tayangan holda maxsus taxlangan savollar sistemasi va unga beriladigan javoblar yo'li bilan o'quvchilarni qo'yilgan ta'limiy va tarbiyaviy masalalarini hal qilishga olib keladi.

Hikoya. O'qituvchining bilimlarini tushuntirishi hikoya shaklida amalgalash oshirilishi mumkin. Bundan asosan matematika tarixining rivojlarini o'lcov sistemalari rivojlanishi haqida tarixiy ma'lumotlarini berish uchun foydalaniladi.

O'quvchilarning kitob bilan ishlashlari - og'zaki o'qitish metodlarining ko'rinishlaridan biridir. Kitob muhim bilim manbaalaridan biridir. O'qish jarayonining hamma bosqichlarida darslik va kitob bilan ishlash amalga oshiriladi. Darsliklarda har xil mashqlardan oldin berilgan ko'rsatmalarni o'qishga katta e'tibor berish kerak. Ayniqsa, bu algoritmik xarakterdagi konkret ko'rsatmalardan foydalanishda muhimdir, bunday ko'rsatmalar III sinf darsligida yozma hisoblash usullarini qarashda berilgan. Bunday ishning yakuni rasm, chizma og'zaki ifodalar matematik yozuvlar yordamida yangi bilimlarni musitaql egalash uchun darslik ochib beradigan imkoniyatlarning hammasidan foydalanishdan iborat bo'lishi kerak.

O'qitishning ko'rsatmali metodlari – o'quvchilarga kuzatishlar asosida bilimlar olish imkonini beradi. Kuzatish hissiy tafakkurning faol shaklidir, bundan o'qitishda, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda keng foydalaniladi. Tevarak atrofdagi predmet va hodisalar va ularning turli-tuman modellari (har xil tipdag'i ko'rsatmaqo'llanmalar) kuzatish ob'ektlari hisoblanadi. o'qitishning ko'rsatmali metodlarini o'qitishning og'zaki metodlaridan ajratib qo'yib bo'lmaydi. Ko'rsatmaqo'llanmalarini namoyish qilishni har doim o'qituvchining va o'quvchilarning tushuntirishlari bilan bирgalikda olib boriladi. O'qituvchining so'zi bilan ko'rsatma vositalardan bирgalikda foydalanishning 4 ta asosiy shakli aniqlangan: 1) o'qituvchi so'zlar yordamida o'quvchilarning kuzatishlarini boshqaradi; 2) og'zaki tushuntirishlar ob'ektning bevosita ko'rinnaydigan tomonlari



haqida ma'lumotlar beradi; 3) Ko'rsatma-qo'llanmalari o'qituvchining og'zaki tushuntirishlarini tasdiqlovchi yoki konkretlashtiruvchi illyustrasiya bo'lib xizmat qiladi; 4) o'qituvchi o'quvchilar kuzatishlarini umumlashtiradi va umumiylashtiradi.

Amaliy metodlar. Malaka va ko'nikmalarni shakllantirish va mukammalashtirish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan metodlar o'qitishning amaliy metodlari hisoblanadi. Xususan, bunday metodlar jumlasiga yozma va og'zaki mashqlar, amaliy va laboratoriya ishlari, mustaqil ishlarning ba'zi turlari kiradi. Mashqlar asosan mustahkamlash va bilimlarni tatbiq qilish, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish metodi sifatida qo'llaniladi. Mashq deb biror amalni, shu amalni o'zlashtirish yoki mustahkamlash maqsadida rejali ravishda tashkil qilingan takroriy bajarishga aytildi. Mashqlar tayyorlash, mashq qildirish va ijodiy mashqlarga katta ahamiyat beriladi. Ijodiy xarakterdagi mashqlarga masalan, masala va misollarni turli usullar bilan yechish, ifoda bo'yicha masala tuzish, qisqa yozuv, chizmaga ko'ra masala tuzish, muammoli masalalarni yechish mashqlari va boshqa mashqlar kiradi.

Yuqorida ko'rib chiqgan metodlarimizdan dars jarayonida foydalanilsa pedagoglarga darslarini qiziqarli o'tishlariga yordam beradi, o'quvchilarga esa bilimlarini yanada mustahkamlashga o'z hissasini qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. M.H.Hakimova. Matematika o'qitish metodikasi. Buxoro 2020-yil.
2. Jumayev M.E, Boshlang'ich sinflarda matematikadan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi. Toshkent. "Yangi asr avlod" 2006 yil.
3. Jumayev M.E, Matematika o'qitish metodikasi (KHK uchun) Toshkent. "Ilm Ziyo" 2011 yil.



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA DIKTANTLARNI O'TKAZISH METODIKASI

Djumayeva Aziza Axrorovna

Samarqand viloyati Samarqand shahar

59-umumi o'rta ta'lif maktabi

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lifda diktantlarni o'tkazish metodikasi haqida fikr yuriladi. Unda diktantning boshlang'ich sinf o'quvchilarida imloviy savodxonlikni shakllantirishdagi o'rni aks ettiriladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lif, ona tili va o'qish savodxonligi, imlo, imloviy savodxonlik, diktant, ta'kidiy diktant, ko'rish diktanti, eshitish diktanti, imlo qoidasi.

So'nggi ikki yil davomida boshlang'ich ta'lif sohasida ta'lif-tarbiya jarayonida keng ko'lamli o'zgarishlar olib borilmoqda. Xususan, xalqaro ta'lif sifati tadqiqotlarida yuqori natija ko'rsatgan mamlakatlarning tajribalaridan kelib chiqib, xalqaro ekspertlar tavsiyasiga asosan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozish, o'qish, fikr bildirish ko'nikmalarini sifatli shakllantirish maqsadida “Ona tili va o'qish savodxonligi” fani kiritildi va shu nomdag'i darsliklar amaliyotga joriy qilindi. 1-2-3-sinf uchun mo'ljallangan “Ona tili va o'qish savodxonligi” darsliklari ikki qismdan iborat bo'lib, har bir qismning mashq daftari ham yaratildi.

Binobarin, ta'lif jarayonida o'quvchilar yozma nutqini o'stirishga ham ona tili o'qitishning asosiy vazifasi sifatida yondashiladi. Ma'lumki o'quvchilarining yozma nutqini shakllantirish bevosita imloviy savodxonlik bilan bog'liq. Bu esa o'quvchilarda orfografik malakalarni shakllantirishni tizimli ravishda amalga oshirish muhimligini belgilaydi. O'quvchilarda imloviy savodxonlikni shakllantirishda diktantning o'rni juda katta. Diktantning ham bir qancha turlari mayjud bo'lib, quyida biz ta'kidiy diktant, uning turlari hamda uni o'tkazish yo'llari haqida fikr yuritmoqchimiz.

Bilamizki, boshlang'ich sinf o'quvchilarini to'la savodli qilish chidam va sezgirlik talab qiladi. O'qituvchi o'z o'quvchisiga biror yangi so'z o'rgatish ekan, avvalo shu so'zni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatishi lozim; undan keyingina bu so'z yuzasidan yozuv mashqi o'tkazadi. Bu orfografiya bilan orfoepiyaning o'zaro uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Metodik adabiyotlarda o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yiladigan xatolar turli sabablarga ko'ra sodir bo'lishi quydagicha ko'rsatiladi:

1. Imlo qoidasi o'rganilmagan ba'zi so'zlar diktant matn tarkibiga kirib qoladi.
2. Biror imlo qoidasi bo'sh o'zlashtirilgani sababli tegishli so'zlarni bu orfografik qoidaga bog'lay olmaydilar va ularni xato yozadilar.
3. Imlosi qoidalashtirilmagan so'zlarga oid xatolar.
4. Ba'zan o'quvchilarning beparvoligi tufayli so'zlar xato yoziladi.
5. Yozuvda o'quvchilar kalligrafik jihatdan xato qiladilar, buning oqibatida ayrim harflar boshqa shaklga o'tib, bu so'z xato yozilganday seziladi.

Bu xatolarning barchasi ta'kidiy diktant orqali bartaraf qilinadi. Buning uchun ko'proq boshlang'ich sinflarda imlosi o'rgatiladigan so'zlarni o'quvchilarga ko'rsatish, ularning imlosini ta'kidlash orqali yozdirish zarur. Ayniqsa, 1-sinf o'quvchilari og'zaki eshitganlarini yozuvda osonlik bilan ifoda eta olmaydilar. Bu hol o'quvchilarni xatosiz yozishga o'rgatishda yozilayotgan so'zning imlosini oldindan ko'rsatishni talab qiladi. 2-3- sinflarda o'quvchilarning to'g'ri yozuv ko'nikmasi bir oz shakllangach, bolalar biror sohada mustaqil fikrlay oladigan darajada malaka hosil qilgan bo'ladilar.

Bundan tashqari, bu sinflarda imlo va grammatik qoidalar bolalarga tanishtiriladi, bu esa ayrim so'zlar imlosini grammatik qoidaga bog'lab, og'zaki ta'kidlash - izohlashga imkon beradi.

3-4-sinflarda ta'kidlanayotgan so'zning xususiyati ham, bu so'zni ta'kidlash usuli ham murakkablashadi. 3-4-sinflarda yozdiriladigan diktant matn tajribasida orfografiyaning turli tamoyillariga oid so'zlar kelishi mumkin. O'quvchilar yozuvida uchraydigan xatolar ham turli ko'rinishga ega bo'ladi. Shuni nazarda tutib, xato yozilishi mumkin bo'lgan so'zlarni turli usulda ta'kidlash mumkin. Morfologik tamoyilga xos xatolarni ta'kidlashda shu so'zlar imlosi taalluqli bo'lgan grammatik qoida eslatiladi, bu so'zni yuqoridagi grammatik qoidaga bog'lab yozish talab qilinadi.



Agar so‘zlar tarkibiy qismlarga (asos va affikslarga) ajratib tahlil qilingandan so‘ng yozdirilsa, natija yana ham yaxshi bo‘ladi. So‘zlarni morfologik tahlil qilishda suhbat quyidagicha uyushtirilishi mumkin: bu gapda qaysi so‘zlarning yozilishi qiyin, ularni to‘g‘ri yozish uchun qaysi grammatik qoidani esga olish kerak va hokazo. Bu savollarga o‘quvchilar javob bergenlaridan so‘ng o‘qituvchi, albatta, berilgan javoblarni umumlashtiradi, yakun yasaydi. O‘qituvchining yakunlovchi so‘zi har jihatdan muhimdir. Avvalo, o‘qituvchi o‘quvchilar javoblaridagi nuqsonlarni tuzatadi. Ikkinchidan, ayrim so‘zlarning imlosi yuzasidan o‘quvchilarda to‘la ishonch hosil qiladi. Uchinchidan, o‘quvchilar javobini mustahkamlaydi. Bu esa berilgan so‘zlar imlosining o‘quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanib qolishiga sabab bo‘ladi.

Diktant yozib tugatilgach o‘quvchilar o‘z yozuvlarini doskadagi matnning asl nusxasiga solishtirib, o‘z xatolarini tuzatib oladilar. Bu solishtirish vaqtida takrorlash ko‘zda tutilgach mavzu o‘quvchilarning diqqat markazida turishi kerak.

Ko‘rish diktantining bu shakli orqali matndagi grammatikaning biror qoidasiga oid ayrim so‘zlar orfografiyasigina emas, balki diktant matnidagi barcha so‘zlar imlosini o‘rganish maqsad qilib olinishi mumkin. Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘quvchilarni so‘zlarni to‘g‘ri va xatosiz yozishga o‘rgatishda ta’kidiy diktant, xususan, ko‘rish diktanti muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarda imloviy savodxonlikni shakllantirishda o‘qituvchi bu diktant turidan ham samarali foydalanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu esa, albatta, ta’kidiy diktantlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hamda ularni tashkil qilish metodikasini bilishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirzayev A. Diktant metodikasi.- Toshkent, “O‘qituvchi”, 1979.
2. Abdullayeva Q., Rahmonbekova S., Bekmurodova G., G‘ozixo‘jayeva G. Diktantlar to‘plami. (Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun). - Toshkent: “Niso Poligraf”, 2017.



BOSHLANG‘ICH SINFDA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Mahmudova Dilnoza

Bag‘dod tumani 55-maktab
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
e-mail: dilnoz55@gmail.com

Annotatsiya: maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitish va ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish, o‘quvchini faollashtirishga qaratilgan usullar bo‘yicha fikr-mulohazalar berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qish darsi, ertak, adabiy ta’lim, estetik did.

Ta’lim o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo‘lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma’lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o‘qituvchi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarga yetkazadi, o‘quvchilar esa uni o‘zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladi. O‘rganish jarayonida o‘quvchilar o‘zlashtirishning turli ko‘rinishlaridan foydalanishadi, ya’ni o‘zlashtirilayotgan ma’lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o‘ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarlarning dars paytidagi hamkorligi, o‘quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta’lim va tarbiya masalalari hal etiladi. Ta’limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta’lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo‘lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta’limning maqsadi imkoniyatlaridan to‘g‘ri, aniq, o‘rinli foydalanish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g‘oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma’naviy boyitishdan iboratligi ta’kidlangan. Ta’limiy maqsad asosida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, og‘zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma’naviy, g‘oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o‘rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkonи paydo bo‘ladi. Ulug‘ donishmandlardan biri «... kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o‘qit», degan ekan. Yurtimizda ta’lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma’noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma’noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o‘zgarish bo‘ldi, desak xato bo‘lmaydi. Bu prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg‘urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko‘ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo‘lishlari kerak, degan g‘oyasi zamirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko‘rsatadi. Ma’lumki, ta’limda ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o‘quv mashg‘ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo‘llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma’naviyatlari shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o‘zları qidirib topish, mustaqil o‘rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o‘zları keltirib chiqarishga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta’limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rilli o‘yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so‘zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo‘llanmoqda. Dars mashg‘ulotlarida o‘yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobjiy natija beradi. O‘yin-topshiriqlarning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o‘quvchilarining o‘yin-topshiriqlarni bajarishga o‘rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o‘rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog‘liq bo‘lishi kerak. Ta’limda o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglash va shu fikrni og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o‘rgatish masalasiga e’tibor qaratilgan bo‘lib,



mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o‘rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o‘rganiladi. Bugungi kun o‘qituvchidan ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o‘quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Tursunov.U.N.”Pedagogika darsi”.T.:”O‘qituvchi “-1997-yil
- 2.Qayumova Sh.M. Boshlang‘ich ta’lim tizimida fanlararo integratsiyaning ahamiyati. Proceedings of Ingenious Global Thoughts An International Multidisciplinary Scientific Conference.November 29th, 2020
- 3.Mavlonova R., Rahmonqulova R. Boshlamg‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi.T.:Ilm ziyo,-2009.24-bet
- 4.Kutlimuratova N.R. Boshlang‘ich sinflarda integratsiyon o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 1.Issue 6.



ADABIYOT DARSLARIDA BADIY ASAR QAXRAMONLARI TAHLILIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH

Mirzayeva Nigoraxon Mo'ydinovna

Farg'onha viloyati Toshloq tuman

1- son Kasb hunar maktabi

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyot darslarida badiy asar tahlil qilishda turli zamonaviy merodlardan foydalanish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: «Aqliy hujum», «Zakovat», «Zigzak», «Interfaol», «O'yin dars», «Munozarali-bahsli dars», «Sayohat dars», «Musobaqa dars», «FSMU», metodik o'yinlar

Noan'anaviy darslarni esa interaktiv metodlar va o'yinlarsiz tasavvur etish qiyin, zero bular darsning o'zagini tashkil etadi. Misol uchun, murakkab mavzuni o'quvchilar ongiga osongina etkazish uchun «Aqliy hujum», «Zakovat», «Zigzak», «Interfaol», «O'yin dars», «Munozarali-bahsli dars», «Sayohat dars», «Musobaqa dars», «FSMU», «Baliq skeleti», «Charxpalak» kabilarning o'quv jarayonida qo'llash alohida ahamiyatga ega. Darslarda qo'llanadigan interaktiv usullar o'quvchilarda o'z ona tili va yurtiga mehr-muhabbat tuyg'ularini uyg'otish, ularni mukammal savodxonlik darajasiga ko'tarish, mantiqiy aniq va to'liq nutq sohibi bo'lishiga erishish kabi muhim vazifalarni bajarishni nazarda tutadi.

Aytish kerakki, XX asrning 60-yillaridan e'tiboran pedagogika ilmida paydo bo'lgan konstruktiv pedagogika nazariyasi bugunga kelib, adabiyotshunoslik nazariyasining tabiatiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatib, uning mohiyatini o'zgartirib yubormoqda. SHuningdek, ta'limga nazariyasi va amaliyotiga “texnologik ta'limga” tushunchasining kirib kelishi fanni o'qitishda ham bir qator yangiliklar sodir bo'lishini taqozo etmoqda. Ko'pincha, pedagogik texnologiyaga ta'limga jarayonini osonlashtirishga, uni ma'lum darajada isloh qilishga qaratilgan amaliyot tarzida qaraladi. Holbuki, bu tushunchani “pedagogik texnologiya” emas, balki “texnologik ta'limga” tarzida qo'llash hamda uning o'qitish sohasida tub inqilobiy o'zgarishlar qilish yo'li ekanligini tushunish kerak bo'ladi.

Texnologik ta'limga o'qitish jarayoniga industrial tovar ishlab chiqarishdagi kabi konveyer usulini joriy etish, o'qitishning texnologiyasini faqat qobiliyatli va intizomli talabalar emas, ta'limga jarayoniga tortilgan barcha talabalar ham mo'ljal qilingan natijalarga erisha oladigan tarzda tashkil etish mumkinligi adabiyot ilmi mutaxassislar oldiga ham jiddiy talablarni qo'ymoqda. Binobarin, bugungi kunda adabiyotshunoslik nazariyasini o'rganayotgan bo'lajak mutaxassislar yaqin vaqtarda, o'zining pedagogik iste'dodidan qat'i nazar, barcha talabalarning konveyer yo'sinida yaxshi o'qiy olishlarini yo'lga qo'yish sirlarini egallab olishlari lozim bo'ladi. Endilikda o'qituvchining talanti va mahorati emas, balki ta'limga mazmunininig strukturasi hamda pedagogik muhit va sharoitning uyushtirilishi o'qitishning samaradorligini ta'minlashiga erishish ko'zda tutilmoqda. Zotan, badiy asar tanlanganlarga nasib qilganiday, uni birdaniga oson va to'g'ri tushunish ham hammaga xos emas. Bu o'qituvchining zimmasida bo'lgan mas'uliyatdir. Badiy asar tiliga maftun bo'lgan yoki aksincha aynan til tufayli uni yoqtirmay qolgan talaba o'z hissiyotlari boisi asar tilida ekanini xayoliga ham keltirmasligi mumkin. O'qituvchi shu jihatni nazardan qochirmsasligi, butun auditoriyani qamraga holda talabalar e'tiborini badiy asar tiliga qarata bilishi lozim. Bu jarayonda eng qulay usul “fikriy hujum” hisoblanadi.

Adabiyot darslarining muhokamalarga boy, qiziqarli o'tishida ko'plab metodlar qo'llaniladi. Ulardan eng samaralilaridan biri “Rolli o'yin” metodi.

“Rolli o'yin” metodi

Mazkur metod adabiyot darslarida keng qo'llanadigan metodlar toifasiga kirtsak ham bo'ladi. Bunda o'quvchilarni kichik guruhlarga bo'lgan holda qo'llab ko'rish mumkin. Ushbu metodda har bir guruh berilgan asarning ma'lum qismini rollarga bo'lingan holda ijro etishadi. Bahollash ham aynan o'quvchilarda tanlab olingen hakamlar hay'ati baholaydi. Metodning afzalligi shundaki, ushbu metodda bola asarni o'rganar ekan uning uning ichiga kirib borib asar qahramonlari holatini xis qilishni o'rganadi.

Xulosa qilib aytganda, ona tili va adabiyot fanining chuqur o'zlashtirilishi zamonaviy pedagog foydalanadigan interfaol metodlar, o'yinlar va computer texnologiyalaridan oqilona foydalanish orqali yanada puxta, oson va tez bo'lishi mumkin.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jumaniyozov, S. A. (2020). Abdulla Qahhor hikoyalarini o'rganishda innovatsion metodlar. *Science and Education*, 7(5).
2. Khodjamkulov, U., Botirova, S., Shofkorov, A., & Abdirimova, I. (2020). Bases of Organizing Cooperation between Educational Institutions through Clusters (on the Example of the Education System of Uzbekistan). *Journal of Critical Reviews*, 7(12), 166-169.
3. Khodjamkulov, U., Makhmudov, K., & Shofkorov, A. (2020). The Issue of Spiritual and Patriotic Education of Young Generation in the Scientific, Political and Literary Heritage of Central Asian Thinkers. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(05), 6694-6701.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA SAVOD O'RGATISH BOSQICHLARI

Naimova Gulbahor Raximovna

Samarqand viloyati Samarqand shahar

59-umumi o'rta ta'lif maktabi

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqolada maktablarda samarali ta'lifni tashkil etishning ilk qadamlaridan biri bo'lgan savod o'rgatishni yuqori saviyad tashkil etish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Savod o'rgatish, tayyorgarlik davri, harfni terish kartoni, magnit doskasi, sirli mato, rasmlar,

Savod o'rgatish jarayonidagi o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarga tovush va harfni tanishtirish, ularning to'g'ri talaffuzini o'rgatish orqali bolalarda to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, o'quvchilar lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqini o'stirish, bilimini boyitish, tafakkurini shakllantirish, eshitish, qabul qilish sezgisini o'stirishda ham bu davr mas'uliyatliligi bilan alohida o'ren tutadi.

Tayyorgarlik davri o'qishga o'rgatish uchun zamin hozirlaydi. Bu davrda bolalarda o'zgalar nutqini eshitish, diqqatni toplash, til birliklarini (tovush, bo'g'in, so'z, gap) farqlash, ajratish, ularning vazifalarini anglash kabi xususiyatlar shakllantiriladi. Bular o'quvchilarning o'qishni muvaffaqiyatli egallashlariga yordam beradi. O'qishga o'rgatish uchun, awalo, o'quvchi tovush va harf bilan yaxshi tanishtirilishi lozim. Tovush va harf bilan tanishtirishda bo'g'indan tovushni ajratish tamoyiliga rioya qilinadi. Harf bilan tanishtirish bir necha xil yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin:

1. Mazmunli rasm yuzasidan savol-javob usuli bilan bog'lanishli hikoya tuzdiriladi. Undan kerakli gap, so'ng kerakli so'z ajratib olinadi, so'ngra so'z ustida yuqoridaagi kabi tahlil ishlari uyuşhtiriladi.

2. So'z asos qilinib, analitik mashqlar yordamida o'rganiladigan tovush ajratib olinadi. Masalan: uy. O'qituvchi uy rasmini ko'rsatadi, o'quvchilar uning nomini — so'zni aytadi. O'qituvchi u tovushini cho'zib (u-u-u-y) aytadi va qaysi tovushni cho'zib aytayotganini o'quvchilardan so'raydi. O'quvchilar u tovushini aytgach, uning xususiyatlari haqida savol-javob o'tkaziladi. U tovushli so'zlar o'ylab toptiriladi. Shundan so'ng u harfi kesma harfdan yoki rasmi alifboden ko'rsatiladi. Bunda u harfining shaklini esda olib qolishlariga alohida e'tibor qaratiladi.

O'qishdan oldin o'tkazilgan tayyorlov suhbatni ham, o'qilgan matn yuzasidan o'tkazilgan suhbatni ham shu maqsadga — ongli o'qishga xizmat qiladi. Sharoitga qarab, bolalarga nimanidir o'qishni talab qiladigan muammoli holatni yaratish ham zarur. Bunday holat „Alifbe“ dan yoki harf terish matosidan, o'qiladigan topishmoqdan foydalanib yoki muammoli savolni keltirib chiqaradigan taxminiy suhbat yordamida hosil qilinishi mumkin. Masalan, Qishda qushlar qayerga uchib keladi? (harf terish matosida: issiq o'ikalarga uchib ketadi). Mana shu kabi tayyorlov mashg'ulotlari o'qishning yuqori darajada ongli bo'lishini ta'minlaydi.

O'rganilgan harflar ichiga bugun o'rganiladigan harf aralashtirib qo'yiladi, bolalar uning ichidan notanish harfni ajratadilar, so'ng o'qituvchi bu harf ifodalaydigan tovushni aytadi. O'quvchilar tovushning xususiyatlarini aytadilar. Shu harfni kesma harflar ichidan topib, kitob sahifasidan, rasmi alifboden ko'rsatadilar. Shu tariqa tovush-harf bilan tanishtirilgach, o'qishga o'rgatish ustida ishlanadi.

O'qishga o'rgatishda bo'g'in asos qilib olinadi. Buning uchun o'qituvchida bo'g'in jadvali bo'lishi lozim. Bo'g'in jadvali asosida o'qish namunasi ko'rsatiladi, ya'ni harflab emas, ichida, birinchi harfni ko'z bilan ko'rib, uning nomini dilda saqlab, ikkinchi harfni ko'rish va ikkalasini bog'lab, unlini mo'ljallab ulab aytish tushuntiriladi. Bo'g'in o'qish o'qituvchining namunasi asosida doimiy ravishda har bir darsda izchil olib boriladi.

O'qish darsida asosiy ish turlari quyidagilardir:

1. O'rganiladigan yangi tovushli so'zni (shu tovush so'z boshida, o'rtasida, oxirida kelgan so'zni) bo'g'in-tovush tomonidan tahlil qilish bilan ajratish. Bunda yangi tovush ajratiladigan so'zni o'quvchilar rasm asosida o'zları tuzgan gapiar ichidan oladilar. Tovushni ajratishda shu so'zning chizmasi-modeliga asoslanadilar. Tovushlami eshitish, talaffuz qilish, ulaming artikulatsiyasi (nutq organlarining tovush chiqarishdagi ishi) ustida mashq qilinadi.



2. Kichik va bosh harflar bilan tanishtiriladi. Bo'g'inlar o'qitiladi.
3. So'zlarni awal xattaxtadan, keyin „Alifbe“dan o'qish. Harf bo'g'inlaridan harf terish kartonida so'z, so'z birikmasi, gap tuzish va ulami o'qish, so'z ma'nosi ustida ishlash.
4. Matnni o'qish va tahlil qilish, uni qayta o'qish, rasmning matnga bog'liqligini belgilash.
5. Nutq o'stirish: lug'atini boyitish, so'z birikmasi, gap, bog'lanishli hikoya tuzish.
6. Umumlashtirish: yangi harfni jadvalga qo'yish, yangi o'rganilgan tovushning unli yoki undosh ekanligini aniqlash, yangi harfni ilgari o'rganilganlar bilan qiyoslash, tovush va harfning ahamiyatini takrorlash va hokazo.
7. O'rganilganlarni mustahkamlash darsida yangi tovush ajratiladi, yangi harf bilan tanishtirish mashqidan tashqari, barcha ish turlaridan foydalaniлади, shuningdek, qo'shimcha so'zlar va matnlar bilan ishlanadi; matnni o'qish va tahlil qilishga, ko'rgazma vositalar bilan ishlashga (harfni terish kartoni, magnit doskasi, sirli mato, rasmlar va boshq.) nutq o'stirishga, o'yinlar va qiziqarli materialarga, ilgari o'rganilgan tovushlar va harflami takrorlab mustahkamlashga alohida ahamiyat beriladi, tarqatma materiallardan ham foydalaniлади.

Xulosa qilishimiz mumkinki, boshlang'ich sinflarda pedagogning asosiy vazifasi o'quvchilariga samarali ta'limni ta'minlab berishdir. Zero, boshlang'ich ta'limning asosiy vazifasi ham, birinchi o'rinda, o'quvchilar uchun savod o'rgatishdan boshlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharoljon Sariyev "Ona tili o'qitish metodikasi" Toshkent «NOSIR» nashriyoti 2009
2. S. Matchonov, A. Shojalilov, X. G'ulomova, Sh. Sariyev, Z. D. olimov. O'qish kitobi (4-sinf uchun darslik). — T.: „Yangiyul polygraph service“, 2007.



JISMONIY TARBIYA FANINING BUGUNGI DAVRDAGI AHAMIYATI

Qulmatov Asilbek Mahkamboyevich

Namangan viloyati Norin tumani

21-umumta'lismaktabi
jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasida “Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati” fani va uning ahamiyati, rivojlanishiga bag‘ishlangan. Maqolada barcha fikrlar tahlil qilingan va misollar èrdamida isbotlangan.

KALIT SO‘ZLAR: universiada, spartakiada, xorijiy tajriba, jismoniy tarbiya nazariyasi, jismoniy tayèrgarlik, sohlov hayot, pedagogik texnologiya

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasida quyidagi fikrlarni “jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bilan bog‘liq. Albatta, bu sohada, ayniqsa, oliy mahorat sporti borasida keyingi yillarda muayyan yutuqlarimiz bor. Biz ular bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Lekin, oxirgi Olimpiadada faqatgina og‘ir atletika, boks, kurash va dzyudo bo‘yicha sovrinli o‘rinlar egallandi. Buning sababi nimada? So‘nggi besh yilda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, shuningdek, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun byudjetdan 1 trillion 230 milliard so‘m ajratilgan”. O‘zbekiston o‘zining mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo‘lini tanlab olgan va ta‘lim sohasini ham sobit qadamlik bilan isloh qilib bormoqda. Ayniqsa, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da qabul qilingan, bu boradagi ishlar keng ko‘lamga erishdi. Ushbu hujjalarning dolzarbliji asosida bilim va kasb-hunar egallahsga bo‘lgan e’tibor kuchayib ketdi. Shu bilan birga bugungi kunda sport ta‘limi va jismoniy tarbiya tizimiga ham yangicha yondashuvlar kirib kelmoqda. Bu yondashuvlar o‘z navbatida, o‘quv jarayonining turli tashkiliy va metodik jamg‘armalarida muayyan ijobiy o‘zgarishlarni sodir etadi, albatta. Ularning ko‘pchiligi pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat bilan uzviy bog‘liq o‘zgarishlardir. Jamiyatda jismoniy madaniyat rivojlanganligining asosiy ko‘rsatkichi bu - insonlarning salomatligi va jismoniy rivojlanganligi darajasi, jismoniy madaniyatning ta‘lim va tarbiya, ishlab chiqarish va maishiy sohalarda, bo‘sh vaqtini to‘g‘ri tashkillashtirish jarayonida qanchalik muhim o‘rin tutishidir. Inson faoliyatida jismoniy tarbiyaning amaliy natijasi sifatida, kishining jismoniy tayyorgarligi va xarakat bilim va ko‘nikmalarining barkamollik darajasi, yuksak xayotiy kuchga egaligi, sport sohasida erishgan yutuqlari, aqliy rivojlanganligi hisoblanadi. Shu jihatdan ta‘lim nazariyasi va amaliétida o‘quv jaraeniga texnologik xususiyatni berish uchun 50-yillarda birinchi urinishlar qilib ko‘rilgan. Ular o‘z ifodasini an'anaviy o‘qitish uchun majmuali texnik vositalarni yaratishda topgan. Hozirgi vaqtda jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologiya “o‘qitishning texnik vositalari yoki kompyuterlardan foydalanish sohasidagi tadqiqotlardek qaralmaydi, balki bu ta‘lim samaradorligini oshiruvchi omillarni tahlil qilish, ishlab chiqish hamda usul va materiallarni qo‘llash, shuningdek qo‘llanilaётган usullarni baholash yo‘li orqali ta‘lim jarayonining asoslari va uni maqbullashtirish yo‘llarini ishlab chiqishni aniqlash maqsadidagi tadqiqotdir”. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, yosh avlod salomatligini muxofaza qilish va mustahkamlash, ta‘lim jarayonini barcha qismlarida ta‘lim yo‘nalishida sog‘lomlashtirish dasturlarni ta‘minlab borilishiga katta etibor qaratilmoqda. Shu bois, ta‘lim muasassalarida asosan bolalik va o‘smirlik davridan jismoniy tarbiya va sportga poydevor qo‘ylgan. Milliy genofondning shakllanishida, sog‘lom turmush tarzini to‘g‘ri tashkil etishda va yosh avlodni sog‘lom tarbiya qilishda jismoniy tarbiya va sport ma‘naviy va mafkuraviy vosita sifatida qo‘llaniladi. Biz bugun demokratik ajdodlar merosi, milliy qadriyatlar asosida, o‘zimizning turmush tarzimiz talablaridan kelib chiqqan holda barpo etishga xarakat qilmoqdamiz. Ana shu harakatlar negizida sog‘lom inson turipti. Jismoniy tarbiya va sport orqali sog‘lom insonni shakllantirish butun bir jamiyatning vazifasi bo‘lmog‘i kerak. Har bir inson, oila, ota-onasi jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishni odat darajasiga chiqarishi bilan birga, qadriyat sifatida e’zozlashi jamiyatning uzlucksiz ravishda jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishiga olib keladi. “Muxtasar aytganda, sport mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalashning eng muhim vositasi bo‘lib kelmoqda va kelajakda ham shunday bo‘lib qolishi mukarrar. Chunki - sport sog‘lom avlod, sog‘lom kelajak degani. Binobarin, faqat sog‘lom xalq,



sog‘lom millatgina buyuk ishlarga qodir bo‘ladi”. Davlatimiz rahnamoligida yosh avlod o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etish, jismoniy tarbiya va sport soxasini ommaviylashtirish va rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilaётgani barchaga ma’lum. Bugungi zamон yoshlari, bevosita ertamiz egalari hisoblangan èsh avlod vakillari jismonan sog‘lom, kuchli irodaga ega, shu bilan bir qatorda, ta’lim va tarbiyaga ega bo‘lishi, ularni yetuk insonlar etib voyaga yetkazish, dunèda xech kimdan kam bo‘limgan avlodni tarbiyalashdek ezgu maqsadga yunaltirilgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida sport èshlarimiz haётiga tobora chuqur kirib bormoqda, minglab yigit-qizlar sport bilan shug‘ullanishni kundalik vazifasiga aylantirmokda. Eng muhimmi, sog‘lom turmush tarzini ta’minalash va sport bilan hamnafaslik qilish ularning jismoniy holatiga hamda salomatligiga ijobjiy ta’sirini ko‘rsatmokda. Shuni ta’kidlash lozimki, Respublikamizda aynan bolalar sportini rivojlantirish davlatimiz raxbari va huqumatimiz tomonidan alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, bu borada qonun, farmon va qarorlar ijrosini ta’minalash yuzasidan xam keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaev A., Xonkeldiev SH. “Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati”. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. T.O’DTI nash. 2007 y.
2. Abdullaev. Jismoniy tarbiya vositalari. O‘quv qo’llanma. Far’ona, 2005 y.
3. Abdullaev A., Rasulov R., Xasanov A. Umumiy o’rta va kasb –hunar ta“limi tizimlarida jismoniy tarbiyadan sinfdan tashqari ishlar. Farg’ona. 2009 y.



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTERFAOL TA'LIM METODLARIDA
FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

Sarbarova Malika Yo`ldashaliyevna,
Namangan viloyat, Namangan tuman,
17-maktab boshlangich sinf oqituvchisi
tel: 934987435

Annatatsiya: Ta'linda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyatda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: o'qituvchi, o'quvchi, ta'lim, interfaol.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rghanish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyatga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarlarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

